

TILSHUNOSLIKDA ABSTRAKT OTLARNING O‘RGANILISHI

Alibekova Zilola Abdulhayit qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

ANNOTATSIYA

Maqolada abstrakt nomlarning o‘rganilishi bilan bog‘liq masala ochib berilgan. Jahon tilshunos olimlarining abstraktsiya, abstrakt nomlar masalasidagi qarashlari o‘rganilgan va tahlil qilingan. Bunda, albatta, ular tonomidan yaratilgan asarlarga murojaat qilingan.

Kalit so‘zlar: Abstraktsiya, tilshunoslik, denotativ ma’no, signifikativ ma’no, semantika;

ABSTRACT

The article reveals the issue related to the study of ABSTRACT names. The views of world linguists on the issue of ABSTRACTion and ABSTRACT names have been studied and analyzed. Of course, works written by scientists were referred to.

Key words: abstraction, linguistics, denotative meaning, semantics;

Jahon tilshunosligi ilmiy paradigmasiga “til shaxsi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslik nazaridan chetda qolgan, lekin tilshunoslikka yaqin bo‘lgan fanlarda keng qo‘llanilgan shaxs, ong, tafakkur, faoliyat, xulq, vaziyat singari tushunchalarning o‘zlashtirilishiga olib keldi. Til kishilar o‘rtasida muhim aloqa vositasi bo‘lishi bilan birga, olam haqidagi bilimlarni to‘plovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vosita hamdir. Shu kunga qadar tilning kommunikativ vazifasi va uning ichki tuzilishini o‘rganishga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, XXI asrdan tilning ichki tuzilishini kognitiv, lingvokulturologik vazifa bilan birgalikda o‘rganishga e’tibor berila boshlandi.

Olimlar kognitiv fanlarning markaziy tushunchasi borliqni mental gavdalantirish yoki til mentalligi ekanligini qayd etib, til mentalligi til tasavvurlari o‘rtasidagi munosabat, borliqning til tasavvuri muammosi, xususan, borliqning til orqali ongda aks etishi, til tafakkuri, jamiyat a’zolarining tafakkur tarzi aloqador bo‘lgan mavhum so‘zlarni lingvofalsafiy, lingvistik, sotsiopragmatik aspektda tahlil qilmasdan, balki antropotsentrik yondashuv asosida ham tadqiq etishmoqda. Zero, kognitiv lingvistikaning markazida “so‘zlovchi shaxs” tushunchasi turganligi uchun u neolingvistika, antropotsentrik lingvistika nomi bilan ham atalmoqda. Sohada amalga oshirilgan qator ilmiy ishlarda abstrakt nomlar mental, semantik-konseptual, grammatik jihatdan o‘rganilgan, muammoga aloqador birliklar bo‘yicha aksiologik,

assotsiativ, sotsiopragmatik, lingvokulturologik tadqiqotlarning ham amalga oshirilishi bugungi tilshunoslik uchun dolzarb masala hisoblanadi. Ko‘rinadiki, ijtimoiy, ma‘naviy jihatdan jamiyatda erishilgan barcha muvaffaqiyatlar zahirida mavhum otlarning tadqiqi orqali muayyan til egalariga xos tafakkur, ma‘naviyat va madaniyat ham aks etadi.

Dunyo tilshunosligida abstraksiya muammosi, mavhumlik va aniqlik o‘rtasidagi chegara qayerda joylashganligi xususida, mavhum otlarning xususiyatlari, ularning lisoniy, tipologik va qiyosiy tasniflari keng ko‘lamda o‘rganilayotganligini qayd etish mumkin. Abstraksiyaning taraqqiyoti, rivojlanishi D.P.Gorskiy tomonidan maxsus o‘rganilgan. L.V.Kalinina rus tilidagi aniq, abstrakt otlarning morfologik, sintaktik, morfemik va semantik tasnifini, L.V.Brikotnina tomonidan ingliz tilida belgi-xususiyat bildiruvchi abstrakt nomlar semantikasi va sintaktik jihatlari o‘rganilgan. G‘arb tilshunosligida abstrakt so‘zlar S.Shaumyan, L.O.Cherneyko tomonidan lingvistik-falsafiy yo‘nalishda, Y.I.Kryukova, Y.E.Nazarova, E.X.Xabibulina ilmiy ishlarida abstrakt so‘zlarning yasaliishi bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan bo‘lsa, O.L.Ivashenko, A.N.Doborovich, A.I.Yandiyeva, A.Setti va N.Karamellilarning ilmiy tadqiqotlari esa abstrakt so‘zlarning konseptual tadqiqiga oiddir.

Tilshunoslikda abstrakt nomlarni o‘rganishda quyidagi yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: abstrakt so‘zlarning etnolingvistik xususiyatlarini aniqlash; nutqiy abstrakt nominatsiyalarning pragmatikasini yoritish; abstrakt nomlarda millat madaniyatining aks etishini o‘rganish; izohli va tarjima lug‘atlardagi leksikografik talqinlarini oydinlashtirish; assotsiativ lug‘atlarni tuzish; leksik abstraksiyaning so‘z turkumlarida voqelanishini va matn hosil qilish imkoniyatlarini ochib berish. “Abstrakt nomlar o‘z ziddi hisoblangan konkret nomlardan farqli semantikaga ega.”¹ Bu o‘ziga xosliklar semantik strukturadagi denotativ va signifikativ ma‘no munosabatlarida yorqinroq namoyon bo‘ladi. Konkret leksika denotativ (atoqli otlar, terminlar) va denotativ-signifikativ ma‘noli nomlarni o‘z ichiga olsa, abstrakt leksika esa signifikativ va signifikativ-denotativ ma‘noli nomlardan iborat bo‘ladi².

O‘zbek tilida temporal ma‘noli abstrakt nomlar nisbatan kattagina guruhni tashkil qiladi. Bu guruh birliklari “bevosita kuzatishda berilmaganlik”, “ajratilganlik”, “vaqt” arxisemalari bilan birlashadi. Temporal ma‘noli abstrakt nomlar guruhini yanada kichikroq guruhchalarga ajratish mumkin: umumiy vaqtni ifodalovchi abstrakt nomlar, vaqtning o‘rnini bildiruvchi abstrakt nomlar, muayyan ishning maqsadga muvofiq yoki o‘ziga xos ro‘yobga chiqish vaqtini ifodalovchi nomlar. O‘zbek tilida umumiy vaqtni

¹Ҳакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Дисс...ф.ф.д. Тошкент 2019. – Б. 17.

²Ҳакимова М. Кўрсатилган диссертация. – Б. 17.

ifodalovchi leksemalarni vaqt, payt, mahal, palla, kez, zahot(i), lahza, zamon (zamona), davr, muddat, fursat kabi soʻzlar tashkil etadi. Kez, palla, muddat, dam, on, lahza, davr soʻzlari muayyan chegaralarga ega boʻlgan vaqtni ifodalaydi. Zamon, davr soʻzlari maʼlum voqealar, koʻpincha ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan bogʻliq boʻlgan katta davomiylikdagi vaqtni bildiradi.

Bugungi kunda insoniyat hayotining ajralmas qismi, hayotni ularsiz tasavvur qila olmaymiz degan barcha zamonaviy texnologiyalar, kompyuter, internet, mobil aloqa vositalarisiz ham insoniyat mavjud boʻlgan, turli tamaddunlarni boshidan kechirgan. Biroq, insoniyat uchun suv va havodek zarur boʻlgan narsa bu tildir. Til esa bevosita oʻsha til egasi boʻlgan shaxsning millati, ijtimoiy tabaqasi, saviyasi, dunyoqarashi va shu kabi juda koʻplab unga tegishli belgilarni oʻzida mujassam etadi. Shu jihatdan uni turli tomonlardan, turli yondashuvlarga koʻra tadqiq etish nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, lingvomadaniy oʻrganish ham tilning nazarimizdan chetda qolgan koʻplab masalalarni ilgʻab olishimizga turtki vazifasini oʻtaydi desak mubolagʻa boʻlmaydi.

Lingvokulturologiyaning paydo boʻlishi madaniyat va tilning oʻzaro taʼsiriga boʻlgan qiziqish bilan bogʻliq boʻlib, madaniyat hodisasini dunyoda inson mavjudligining oʻziga xos shakli sifatida tushunishga intilish bilan bogʻliq¹. Shu bilan birga, til insoniyat madaniyatini, xalq mentalitetini talqin qilish vositasi vazifasini bajaradi. Zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslik oʻzining kelib chiqishiga xalq tili, tafakkuri va madaniyati oʻrtasidagi bevosita va bilvosita bogʻliqlikni ochiq tan olgan Vilgelm fon Gumboldt gʻoyalari bilan bogʻliq. 19–21-asrlarda til va madaniyat oʻrtasidagi munosabatlar nazariyasi shakllandi: xorijiy tilshunoslikda (V.fon Gumboldt, J.Vaysgerber, E.Benvenist va boshqalar), rus tilshunosligida (I.A.Boduen-de-Kurtene, F.Buslaev, A.Potebnya va boshqalar), semiotika (Yu.Lotman va boshqalar), kognitiv lingvistika (N.Boldirev, V.Krasnix, E.Kubryakova, Z.Popova va boshqalar), madaniy tilshunoslik (S.Vorkev, V.Vrobiy. V.Maslova va boshqalar). ilmiy izlanishlar natijasida badiiy matnga “madaniy xotira kondensatori” (YU.Lotman), “madaniyat birligi” (V.Krasnix) sifatidagi qarashlar shakllandi. “Madaniy tilshunoslik tilni madaniyat hodisasi sifatida oʻrganadi”, tilning oʻzi esa “maxsus milliy mentalitetning namoyondasi sifatida ishlaydi”, “madaniyatning sharti, asosi va mahsuli”²; “madaniy tilshunoslik – bu madaniyat va tilning faoliyatidagi munosabati va oʻzaro taʼsirini oʻrganadigan va bu jarayonni tizimli usullardan foydalangan holda lingvistik va ekstralingvistik mazmun birligida birliklarning ajralmas tuzilishi sifatida aks ettiruvchi sintezlovchi tipdagi murakkab ilmiy fan.

¹Шаклеин В.М. Лингвокультурология: традиции и инновации: монография. М.: Флинта, 2012. – Б.4.

²Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2001. – Б. 8.

Manbalarda bu fan to'g'risida "zamonaviy ustuvorliklar va madaniyat institutlari to'g'risidagi qarashlar majmui"¹ deya ta'kidlanadi.

Yuqoridagilardan shuni bilish mumkinki, insoniyat tomonidan ko'p asrdan buyon abstrakt tushunchalarga murojaat qilib kelmoqda. Bundan tushunchalarda asosan insonlarning orzu-istaklari, o'ylari, xulosalari aks etgan. Tildagi abstrakt so'zlarning ko'payib borishi shu xalqning madaniyati yuksalib borishidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Ҳақимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Дисс...ф.ф.д. Тошкент 2019. – Б. 17.
2. Шаклеин В.М. Лингвокультурология: традиции и инновации: монография. М.: Флинта, 2012. – Б.4.
3. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие для студентов высших учебных заведений. М.: Издательский центр «Академия», 2001. – Б. 8.
4. Воробьев В.В. Лингвокультурология: монография. М.: РУДН, 2014. – Б. 37

¹Воробьев В.В. Лингвокультурология: монография. М.: РУДН, 2014. – Б. 37.